UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA “INFORMATIKA” FANINI TAKOMILLASHTIRILGAN METODIKA ASOSIDA O‘QITISH

Nazarov Baxodir Abdusamatovich, TATU Samarqand filali “Kompyuter injineringi” fakulteti dekani
Lutfillaev Maxmud Xasanovich, SamDU professori

Annotatsiya. Zamonaviy ta’limda yuqori malakali kadrlar tayyorlashda multimedia texnologiyalariga asoslangan ta’lim jarayonini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Multimedia texnologiyalarining mohiyati shundan iboratki, talaba bilan ishlashning ushbu shakli kafolatlaydigan o‘quv jarayoni rejalashtiriladi va amalga oshiradi.

Kalit so‘zlar: Dasturiy vositalar, elektron va virtual resurslar, Multimedia, MS Power Point Google Apps for education, Ispringsuite, Course Lab, Camtasia Studio, Hot Potatoes Home Page AutoPlay dasturiy vositalari.

ПРЕПОДАВАНИЕ ИНФОРМАТИКИ ПО УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ МЕТОДИКЕ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В современном образовании желательно реализовать образовательный процесс на основе мультимедийных технологий при подготовке высококвалифицированных кадров. Суть мультимедийных технологий в том, что такая форма работы со студентом дает уверенность в том, что его работа очень нужна молодому поколению, планируется и реализуется образовательный процесс, гарантирующий достижение.

Ключевые слова: Программное обеспечение, электронные и виртуальные ресурсы, мультимедиа, MS Power Point, Google Apps для образования, Ispringsuite, курсовая лаборатория, Camtasia Studio, программные инструменты автозапуска домашней страницы Hot Potatoes.

Annotation. In modern education, it is desirable to implement the educational process on the basis of multimedia technologies in the training of highly qualified personnel. The nature of multimedia technologies is that this form of working with the student gives confidence that his work is very necessary for the young generation. educational process that guarantees achievement is planned and implemented.

Keywords: Software, electronic and virtual resources, multimedia, MS Power Point, Google Apps for Education, Ispringsuite, course lab, Camtasia Studio, Hot Potatoes homepage autorun software tools.

Axborot texnologiyaning jadal rivojlanishi ta’lim sohasining barcha yo‘nalishida o‘quv jarayonini samaradorligini oshirish istiqbollarini ochib bermoqda. Ta’lim sohasida axborot texnologiyalari asosida o‘qitishni tashkillashtirish borasidagi ilg‘or yondashuvlarning ishlab chiqishga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so‘nggi yillarda axborot texnologiyalarini dasturiy vositalari asosida Dasturiy vositalar (DV) yordamida ifodalanib kelinmoqda. DV tushunchasi lug‘aviy jihatdan qanday ma’noni anglatadi? Ushbu tushuncha negizida ta’lim sohasini samaradorligini oshirishda qanday afzalliklarga erishish mumkin? DV– obyektning ichki va tashqi xossalarini muayyan talablar va me’yorlar, texnik topshiriqlar va sifat ko‘rsatkichlariga mos ravishda vizuallashtirish sanaladi.

Odatda DV jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlarni imitatsion modellari namoyish etiladi. DV ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va axborot texnologiyalarning rivoji tufayli ta’limni metodik jihatdan rivojlanishning yangi bosqichiga va takomillashtirilgan mukammal ochiq tizimiga o‘tishga imkoniyat yaratadi. Axborot texnologiyalari asosida ta’limning ochiq ko‘rinishdagi tizimga aylanishini anglatadi [1, 23-b]. DV negizida ta’limning barcha bo‘g‘inlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi metodikalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Jumladan, ta’lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

Ta’lim tizimida DV – uning malakali kadrlarga, shaxsga yo‘naltirilgan sifatli ta’lim olishga bo‘lgan talabini qondirish, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishini nazarda tutadi. DV asosida o‘qitish majmuaviy xarakter kasb etib, ta’lim tizimining barcha sohalarini to‘la qamrab olishi va jamiyatda qaror topgan malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi. Ta’lim tizimining DV asosida tashkil qilish quyidagi ustuvor vazifalar hal qilinadi:

- har bir o‘quv materialini qamrab olish va ta’lim olishning ochiqligini ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimida yangi sifat ko‘rsatkichlariga erishish;
- yangi ta’lim resurslarini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish asosida uzluksiz ta’lim tizimida samarali me’yoriy huquqiy va tashkiliy- iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish;
- davlat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi negizida ta’lim tizimi xodimlarining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta’lim tizimining davlat va jamoatchilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta’lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, ota-onalar va ta’lim muassasalarining rolini oshirish [6, 43-b].

O‘zbekiston respublikasida ham ta’lim tizimini DV asosida tashkil etishda o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan predmetlardan va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni e’tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim tizimini DV asosida samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish;

-o‘qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirish;

-o‘quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarining talabalar tomonidan mustaqillik o‘zlashtirilishi uchun qulay pedagogik va texnologik shart- sharoitlarni vujudga keltirish ;

-ta’lim tizimidagi muayyan predmetlardan DVasosida elektron va virtual ressurslar ishlab chiqish [2, 24-b].

O‘qituvchi multimedia texnologiyalari asosida tashkil etilgan dars jarayonida elektron doskadan foydalanishi lozim, chunki bunday holda u bir vaqtning o‘zida auditoriyadagi barcha tinglovchilar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amaliyot va olib borilgan tajriba-sinov ishlari multimedianing ta’lim jarayonidagi samaradorligini tasdiqlagan. Multimedia texnologiyasidan foydalanib ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, u o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir etish mumkin, jumladan:

- Multimedia axborotni qabul qilish va tushunish kabi o‘qitishning kognitiv yo‘nalishlarini qo‘llashi mumkin.

- Multimedia o‘quvchilarning (talabalarning) motivatsiyasini ko‘tarishi mumkin. Multimedia hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishiga va o‘quvchilarning (talabalarning) jamoa bo‘lib bilim olishga yordam berishi mumkin.

- O‘quv multimedia - vositalar o‘quvchilarda (talabalarda) nazariy jihatdan kengroq ma’lumot olish, o‘qishga yondashuvni rivojlantirish va ta’lim materialini chuqurroq tushunishni ta’minlashi mumkin [5, 16-b].

Ma’lumki, umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini o‘qitishda Multimediali elektron qo‘llanmalar yaratish va ulardan foydalanish o‘quvchilar uchun fanni o‘zlashtirishga katta yordam beradi. Yaratilgan yangi elektron dastur imkoniyatlarini o‘rnagan o‘quvchilarda boshqalar uchun ham foydali bo‘lgan bilimlari aks etgan yangi loyihalarni yaratish xohishi paydo bo‘ladi. Bunday holda o‘qituvchi o‘quvchilarga “elektron qo‘llanma”ni yaratishni taklif qilishi mumkin. Bu albatta elektron qo‘llanma yaratishdagi ilk qadam. Bu loyihani yaratishni amalga oshirish uchun turli dasturlar to‘plami bilan ishlashga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchilar tasvirni qayta ishlash, nutq va musiqani yozib olish, animatsiyali effektlardan foydalana olish kabilarni bajara olishlari kerak. Ular uchun axborotni topish va tanlash usullari, ularni tartiblash muhimdir. Ularga mutaxassis va fan o‘qituvchisi ko‘mak beradi. Natijada Multimediali dasturdan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Fan o‘qituvchisiga esa o‘quvchi bilan ishlashning bu shakli uning mehnati o‘sib kelayotgan yosh avlodga juda zarur ekanligi haqida ishonch beradi. Elektron darslik yaratish murakkab jarayon ekanligini e’tiborga olgan holda uni bosqichlarga bo‘lib amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Elektron darslik yaratishning asosiy bosqichlari quyidagilar:

- manbalarni tanlash;
- muallif bilan shartnoma tuzish;
- mundarija tuzish;
- qismlar bo‘yicha matnlarni qayta ishlash;

- gipermatnni elektron shaklga aylantirish;
- ovozli sohani ishga tushirish;
- multimediali soha uchun material tanlash;
- kompyuter yordamini yaratish [4, 55-b].

Multimediali elektron darslik (MED)ni yaratishda o‘quvchilarga tushunarli, matni ravon va qiziqarli, test, krossvordlar tanlashda ularning yoshi, fiziologik xususiyatlari hisobga olish lozim. Elektron darslik strukturasi, boblar va ularga tegishli mavzular bo‘yicha bilimlar qisqa hamda xulosa qismi bilan bog‘langan holda keltirilgan [4, 38-b].

O‘quvchilar erishilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida MEDda savol va topshiriqlar, test sinovlari va krossvord keltirilgan. Masalan, elektron darslik yordamida o‘quvchi o‘z bilimlarini nazorat qilish, ya’ni o‘quvchilar bilimlarini sinab ko‘rish maqsadida test sinovlariga javob berishi mumkin

Umumta’lim maktablarida pedagogik jarayon kechishining muhim shartlaridan biri darslarda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. O‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun mo‘ljallangan ana shunday o‘qitish texnologiyalaridan biri bu multimediali elektron qo‘llanmalardir.

Umumta’lim maktablarida ta’limni axborotlashtirish sharoitida informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishning asosiy maqsadi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliy foydalanish ko‘nikma va malakalarini, axborotni kompyuterda qayta ishlash usullarini, ijodiy anglash va mantiqiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun o‘quvchilarga shart-sharoit yaratish, ularning bilish faoliyatini rivojlantirishdan iborat [3, 29-b].

Bugungi kunda umum ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari kursini o‘qitish bo‘yicha asosiy muammolardan biri - bu o‘quvchilarning informatikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini faollashtirishdan

iboratdir. Informatika va axborot texnologiyalari darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bu eng avvalo o‘quv materialini multimediali va interaktiv ko‘rinishda taqdim etishdir. Bunday o‘quv materiali quyidagi ko‘rinishlardan biri orqali taqdim etilishi mumkin:

1 - turdagi taqdimot. (MS Power Point dasturiy vositasidan foydalanib yaratilayotgan taqdimotlarga odatda matn, rasm va turli ko‘rinishdagi jadvallar hamda test nazorati uchun savollar to‘plamidan iborat slaydlar).

2 - turdagi taqdimot. (Ispringsuite dasturiy vositasida yaratilayotgan taqdimot MS Power Point dasturiy vositasida yaratilgan taqdimotga audio, video va test nazorat dasturini nashr qilish (Publikatsiya) orqali imkoniyatlarini kengaytiradi va bu ko‘rinishdagi taqdimot dars jarayonini takomillashtirishga va samaradorligini oshirish qaratilgan taqdimotlar).

3 - turdagi taqdimot. (MS Power Point Google Apps for education, Ispringsuite, Course Lab, Camtasia Studio, Hot Potatoes Home Page AutoPlay dasturiy vositalaridan foydalanib yaratilayotgan taqdimotlar odatda matn, audio, video test va samaradorligini oshirishga qaratilgan taqdimotlar).

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanib dars jarayonini takomillashtirilgan metodika asosida tashkil etish uning samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Войков В.Д. Роль Интернета – Web-технологий в деле развития образования и культуры // Ж. Интернет: культура и образование. – СПб.: 1998. – С. 15-19.
2. Воротницкий Ю.И. Об архитектуре корпоративных информационных веб-систем // Доклады НАН Беларуси. Т. 48. 2004. № 6. – С. 32-34.
3. Селеменов С.В. Школьная инфографика // Общественно-политический и научно-методический журнал «Образование и современная школа». – Москва, 2010. № 2. – С. 34-42.
4. Соловьева Т.В. Инфографика в медийном и учебном текстах / Т.В. Соловьева // Научно-теоретический и прикладной журнал НГУ им. Ярослава Мудрого «Вестник НовГу». – Новгород, 2010. № 57. – С. 76-79.
5. Голиш Л.В. Что нужно знать обучаюеммоу о современных технологиях обучения? / Учебно-методическое пособие. – Т.: ИРССПО, 2002. – С. 160.
6. Фролова М.А. История возникновения и развития инфографики / М.А. Фролова // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. – Пермь. 2014. № 10. – С. 135-145.